



UDK: 902/904:737(575.1)

Nurbek ALLABERGENOV,
TMS instituti dotsenti v.v.b., PhD, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: nurbek_allabergenov@mail.ru

TMS instituti professori, falsafa fanlari doktori F.Musayev taqrizi asosida

QUYI AMUDARYO BO‘YIDAN TOPILGAN NUMIZMATIK MATERIALLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada Quyi Amudaryo havzasida, xususan, Xorazm vohasi va unga tutash hududlarda topilgan numizmatik materiallar ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu hududning qadimgi va ilk o‘rta asrlardagi tarixiy-geografik o‘rni, siyosiy tuzilmalari hamda iqtisodiy hayoti tanga-pul tizimi orqali yoritib beriladi. Shuningdek, Xorazm diyorining Baqtriya-To‘xoriston, Sug‘d, Choch va Farg‘ona kabi qo‘shni tarixiy viloyatlar bilan o‘zaro aloqalari numizmatik topilmalar asosida tahlil etiladi. Tanga materiallari orqali mahalliy hukmdorliklar, ularning davlatchilik an‘analari, iqtisodiy munosabatlari va madaniy aloqalari haqida muhim xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar: Quyi Amudaryo, Xorazm vohasi, numizmatika, tanga-pul tizimi, qadimgi davr, ilk o‘rta asrlar, mahalliy hukmdorliklar, davlatchilik, iqtisodiy munosabatlar, savdo yo‘llari, pul muomalasi.

NUMISMATIC MATERIALS FOUND IN THE LOWER AMU DARYA REGION

Annotation

This article provides a scientific analysis of numismatic materials discovered in the Lower Amu Darya basin, particularly in the Khorezm oasis and adjacent regions. The study examines the historical and geographical position of this area during ancient and early medieval periods, as well as its political structures and economic life through the monetary system. Furthermore, the interactions of the Khorezm region with neighboring historical areas such as Bactria–Tokharistan, Sogdiana, Chach, and Fergana are analyzed based on numismatic findings. Through coin materials, important conclusions are drawn regarding local ruling entities, their traditions of statehood, economic relations, and cultural interactions.

Keywords: Lower Amu Darya, Khorezm oasis, numismatics, monetary system, ancient period, early Middle Ages, local rulers, statehood, economic relations, trade routes, currency circulation.

НУМИЗМАТИЧЕСКИЕ МАТЕРИАЛЫ, НАЙДЕННЫЕ В НИЖНЕМ ТЕЧЕНИИ АМУДАРЬИ

Аннотация

В данной статье проводится научный анализ нумизматических материалов, обнаруженных в бассейне Нижней Амударьи, в частности на территории Хорезмского оазиса и прилегающих регионов. В исследовании рассматриваются историко-географическое положение данного региона в древний и раннесредневековый периоды, его политические структуры, а также экономическая жизнь через призму денежного обращения. Кроме того, на основе нумизматических находок анализируются взаимосвязи Хорезма с соседними историческими областями, такими как Бактрия–Тохаристан, Согд, Чач и Фергана. На основе монетных материалов делаются важные выводы о местных правителях, их традициях государственности, экономических отношениях и культурных связях.

Ключевые слова: Нижняя Амударья, Хорезмский оазис, нумизматика, денежная система, древний период, раннее средневековье, местные правители, государственность, экономические отношения, торговые пути, денежное обращение.

Kirish. Quyi Amudaryo havzasi – Xorazm vohasi va Orol dengizining janubiy qirg‘oqlari orasidagi hududlarni qamrab olib, bugungi kunda u geografik jihatdan mamlakatimizning shimoli-g‘arbiy hududlaridagi Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston respublikasi hamda Turkmaniston respublikasining Dash-O‘g‘uz (Toshovuz) viloyatiga to‘g‘ri keladi. Qadimgi davrlar va o‘rta asrlardagi tarixiy nomi “Xorazm diyori”, “Xorazm mamlakati”, “Xorazm o‘lkasi” kabi nomlar bilan yuritilgan ushbu hududga hozirgi zamon tarixshunosligida O‘rta Osiyodagi muayyan bir tarixiy-geografik viloyat sifatida qaraladi. Ma‘lumki, qadimgi davr va ilk o‘rta asrlarda mintaqada Baqtriya – To‘xoriston, Sug‘d, Choch, Farg‘ona, Xorazm va hokazo kabi hududlar muayyan vohalarda joylashib, ularning har biri alohida voha hukmdorligi – mulklik sifatida bilingan. Ya‘ni ushbu hukmdorlik o‘zining davlat va hokimiyat ramzlariga - muayyan hudud, chegara, poytaxt, hukmdor sulola, hokimiyat ramzlari, tanga-pul tizimi va hokazolarga ega bo‘lishgan.

Quyi Amudaryo – Xorazm vohasida ilk davlatchilik miloddan oldingi so‘nggi mingyillikning VII – VI asrlariga to‘g‘ri kelib, ayrim istisnolarni aytmaganda, bu yerda









davlatchilik an‘analari o‘ziga xos ko‘rinishda shakllangan. O‘rta Osiyo va unga qo‘shni hududlarga xos davlatchilik bosqichlari - muayyan bir shahar yoki shaharlar negizida dastlab shahar-davlat, keyinchalik esa voha-davlat ko‘rinishdagi bosqichlar Xorazm uchun ham xos bo‘lsa-da, vohaning tabiiy geografik joylashuvi uning birmuncha farqli xususiyatlari shakllanishiga olib kelgan. Ya‘ni Xorazm vohasining geografik jihatdan birmuncha ihtotalangan bo‘lishi - Qizilqum va Qoraqum kabi yirik qumlik hududlar, suv tarmoqlari bu yerni mintaqaning boshqa vohalaridan anchagina farqli davlatchilik an‘analarining shakllanishiga olib kelgan[1]. Bu yerga eng yaqin joylashgan Buxoro va Marv vohalari bilan oraliq masofada qadimdan aholi yashamaydigan yuzlab chaqirimlik uzoqlik mavjudligi, shuningdek, birmuncha yaqin hududdagi Zarafshon vohasi bilan Xorazm vohasi o‘rtasida katta qumliklarning borligi tufayli bu yerni mintaqaning boshqa hududlari bilan tig‘iz aloqalar o‘rnatilishi, o‘zaro ta‘sirilar bo‘lishiga birmuncha to‘siq bo‘lgan. Shu bilan birga, qadimgi xorazmliklarning xalqaro savdoda faolligi, riovjlangan hunarmandchilik buyumlari bilan tashqi savdoni o‘ziga jalb qilishi natijasida

Xorazm vohasi doimiy ravishda rivojlanib, dunyo yangilik va yutuqlaridan yaxshi xabardor bo'lgan. Natijada Xorazm vohasi o'zini ham davlatchilikda, ham iqtisodiy-madaniy sohalarida ilg'or davlat sifatida namoyon qilgan.

Islomdan oldingi Xorazm tangalari bo'yicha, asosan S.P.Tolstov[2], V.I.Vaynberg[3] kabi arxeolog olimlar izlanishlar olib borishgan. Bugungi kunda bu mavzuda deyarli tadqiqotlar olib borilmayapti. Quyidagi jadvalda ilk o'rta asr Xorazm tangalaridan ayrim o'rnaklar keltirib o'tamiz:

Jadval

Afrig'iyalar davri tangalari

№	Tanga turi, davri	Tanga rasmi	Yangicha o'qilishi	Nashr qilingan tadqiqot
1	Ramik tangalari (VI asr oxiri)		Old tomonida yon tomonga qaragan hukmdor tasviri. Teskari yuzasida so'lga yo'nalgan otlq tasviri va uning tevaragida qadimgi xorazm yozuvida MR'Y MLK' R'myk "Xorazmshoh Ramik" so'zlari yozilgan.	Vaynberg 1977; zeno.ru – 79833
2	Bravik tangalari, (VII asr boshi)		Old tomonida yon tomonga qaragan hukmdor tasviri. Teskari yuzasida so'lga yo'nalgan otlq tasviri va uning tevaragida qadimgi xorazm yozuvida MR'Y MLK' Brawik "Xorazmshoh Bravik" so'zlari yozilgan.	Vaynberg 1977; zeno.ru – 209848
3	Shram tangalari (VII asr boshi).		Old tomonida yon tomonga qaragan hukmdor tasviri. Teskari yuzasida so'lga yo'nalgan otlq tasviri va uning tevaragida qadimgi xorazm yozuvida MR'Y MLK' Shram "Xorazmshoh Shram" so'zlari yozilgan.	Vaynberg 1977; zeno.ru – 143674
4	Askajuvar (Chag'on) tangalari (712-713 yy).		Old tomonida yon tomonga qaragan hukmdor tasviri. Teskari yuzasida tang'a va uning tevaragida qadimgi xorazm yozuvida MR'Y MLK' y/z k'nshw "Xorazmshoh Askasvar" so'zlari yozilgan.	Vaynberg 1977; zeno.ru – 150360
5	Kanik tangalari (713-yildan so'ng)		Old tomonida yon tomonga qaragan hukmdor tasviri. Teskari yuzasida so'lga yo'nalgan otlq tasviri va uning tevaragida qadimgi xorazm yozuvida MR'Y MLK' k'nyk "Xorazmshoh Kanik" so'zlari yozilgan.	Vaynberg 1977; zeno.ru – 217432
6	Shavat tangalari (750-yilgacha).		Old tomonida yon tomonga qaragan hukmdor tasviri. Teskari yuzasida so'lga yo'nalgan otlq tasviri va uning tevaragida qadimgi xorazm yozuvida MR'Y MLK' SW'T "Xorazmshoh Shavat" so'zlari yozilgan.	Vaynberg 1977; zeno.ru – 225413
7	Savshafan tangalari (751-yildan keyin).		Old tomonida yon tomonga qaragan hukmdor tasviri. Teskari yuzasida so'lga yo'nalgan otlq tasviri va uning tevaragida qadimgi xorazm yozuvida MR'Y MLK' SAW(ə)SFAN "Xorazmshoh Savshafan" so'zlari yozilgan.	Vaynberg 1977; zeno.ru – 108021
8	Askajuvar (Abdulloh) tangalari (762-yildan keyin)		O'ng yuzasida so'lga qaragan toj kiygan hukmdor tasviri o'rin olgan. Uning so'l yonida sug'diy yozuvida 'SK'NSW'R "Askansvar" ismi yozilgan/. Teskari yuzasida so'lga yo'nalgan otlq tasviri va uning tevaragida qadimgi xorazm yozuvida MR'Y MLK' WY/ZK'NSW'R "Xorazmshoh Askajuvar" so'zlari yozilgan.	Vaynberg, 1977; zeno.ru – 181341

Islomdan oldingi Xorazm vohasi tangalari, asosan ushbu vohaning qadimiy shahar xarobalari – Tuproq-qal'a, Dingilja, Guldursun-qal'a, To'q-qal'a, Ko'hna-Uvaz, Duman-qal'a, Qizil-qal'a, Burgut-qal'a, Angqa-qal'a, Qavat-qal'a, Qo'ziqirilgan-qal'a, Teshik-qal'a, Ayoq-qal'a, Qum-qal'a, Kuyuk-qal'a, Yakkaparon, Meshekli va hokazo kabi yodgorliklardan topilgan[4]. Shuningdek, Xorazm tangalarining bir guruhi Amudaryoning o'ng havzasidagi qadimiy aholi maskanlari o'rnida ham aniqlangan. Tangalarning sezilarli bir qismi arxeologik qazishlar

jarayonida aniqlangan bo'lsa, katta bir qismi tasodifiy topilmalardir.

Yuqorida keltirib o'tilgan o'nlab yodgorliklarda nafaqat islomdan oldingi Xorazm tangalari, balki O'rta Osiyoning boshqa vohalariga tegishli tangalar ham topib o'rganilgan. Jumladan, Kushon, Kushon-Sosoniylar, Sosoniylar, Buxoro, Sug'd (Samarqand), Chag'oniyon va Choch tangalari bunga misol bo'la oladi[5]. Qizig'i shundaki, Xorazm vohasiga "kelib qolgan" mintaqa tangalarining ko'pchiligi qadimgi davrga emas, asosan ilk o'rta asrlarga

to'g'ri keladi. Jumladan, Samarqand tangalari VII asr ikkinchi yarmi - VIII asr boshlarida zarb qilingan tangalar bo'lib, ular Ukurt-Chamuk, Tarxun (700-710) kabi Sug'd ixshidlariga tegishli tangalardir. Shuningdek, Xorazm vohasining Keskenkuyuk-qal'a yodgorligidan Buxorxudotlar sulolasi va Turgash xoqonligi tomonidan zarb qilingan tangalar topilgani diqqatga sazovordir[6].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Quyi Amudaryo havzasi va Xorazm vohasining numizmatik materiallarini o'rganish masalasi tarixshunoslik va arxeologiya sohasida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar asosan XX asrda shakllangan bo'lib, ular orasida arxeologik va numizmatik manbalarni kompleks tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Jumladan, S.P.Tolstovning ilmiy ishlari Xorazm vohasining qadimgi tarixi va tanga-pul tizimini o'rganishda fundamental ahamiyatga ega. Uning tadqiqotlarida Xorazm tangalarining shakllanishi, ulardagi yozuvlar va tasvirlar orqali davlatchilik an'analari hamda madaniy jarayonlar tahlil qilingan. Ayniqsa, olim tomonidan olib borilgan arxeologik qazishmalar natijalari numizmatik materiallarni tarixiy manba sifatida baholash imkonini bergan.

Shuningdek, V.I.Vaynbergning "Drevniy Xorazm tangalari"ga bag'ishlangan tadqiqotlari numizmatika sohasida muhim o'rin tutadi. Ushbu asarda Xorazm tangalarining turlari, ularning xronologiyasi, hukmdorlar nomlari va tanga yozuvlari ilmiy asosda tizimlashtirilgan. Vaynberg tadqiqotlari tangalar orqali siyosiy hokimiyat, sulolalar almashinuvi va iqtisodiy munosabatlarni o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Quyi Amudaryo havzasidan topilgan numizmatik materiallarni o'rganishda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy, arxeologik va numizmatik tahlil usullari tashkil etadi. Ushbu yondashuv orqali tanga-pul materiallari nafaqat moddiy manba sifatida, balki muayyan davrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy holatini aks ettiruvchi muhim ilmiy manba sifatida o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Quyi Amudaryo havzasidan topilgan numizmatik materiallarning tahlili ushbu hududning qadimgi va ilk o'rta asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini yoritishda muhim manba ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida o'rganilgan tangalar mazmun-mohiyati jihatidan bir necha muhim ilmiy natijalarni aniqlash imkonini berdi.

Avvalo, tangalarda aks etgan hukmdorlar nomlari va tasvirlari Quyi Amudaryo, xususan Xorazm vohasida mustaqil davlatchilik an'analari shakllanganini tasdiqlaydi. Ramik, Bravik, Shram, Askajuvar, Kanik, Shavat va Savshafan kabi hukmdorlar nomlarining tangalarda qayd etilgani mahalliy sulolalarning siyosiy hokimiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi. Bu esa Xorazmda markazlashgan boshqaruv tizimi va davlat ramzlari mavjud bo'lganini anglatadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ham mazkur mavzuga muayyan darajada e'tibor qaratilgan. Masalan, G'.Boboyorov va S.R.Baratov kabi olimlarning ishlarida Xorazmning turk xoqonligi davridagi o'rni, arxeologik topilmalar va yangi numizmatik ma'lumotlar tahlil qilingan. Bu tadqiqotlar avvalgi ilmiy qarashlarni boyitish bilan birga, yangi ma'lumotlar asosida hududning siyosiy va iqtisodiy hayotini qayta ko'rib chiqish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, Abu Rayhon Beruniyning asarlari ham numizmatik tadqiqotlarda muhim yozma manba sifatida xizmat qiladi. Unda keltirilgan ayrim hukmdorlar nomlari tangalardagi yozuvlar bilan uyg'un kelishi numizmatik ma'lumotlarning ishonchligini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda Quyi Amudaryo va Xorazm numizmatikasiga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan kamayib bormoqda. Mavjud ishlar, asosan klassik tadqiqotlarga tayanadi va yangi arxeologik topilmalarni kompleks tahlil qilishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, tangalarni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida o'rganish, ularning tarqalish geografiyasi va iqtisodiy ahamiyatini chuqur tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Jetiosor yodgorligi (Quyi Sirdaryo havzasi – Janubiy Qozog'iston)dan 300 km janubi-g'arbda ham qadimgi xorazm tangalari topilgan bo'lib[7], bu ushbu yodgorliklar majmuasidan Xorazm vohasi madaniyatiga taalluqli bir qator artefaktlar qo'lga kiritilgan.

Shuni ham qayd etish kerakki, jadvalda keltirilgan tangalardagi hukmdor ismlaridan bir qanchasi Beruniyning asarida qayd etilgan (mas. Askajuvar)[8].

ADABIYOTLAR

1. Бобоёров Ф. Турк хоқонлиги даврида Хоразм // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент-Урганч, 2019. – Б. 48-50.
2. Толстов, С.П. Монеты шахов древнего Хорезма и древнехорезмийский алфавит // Вестник древней истории. – 1938. – № 4 (5). – С. 120-145
3. Толстов С. П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М.: Издание МГУ, 1948.
4. Вайнберг Б. И. Монеты древнего Хорезма. – Москва, 1977.
5. Баратов С.Р. Новые данные по археологии Южного Хорезма // Археология Узбекистана. №1 (6), 2013. – Самарканд, 2013. – С. 35.
6. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.:Фан, 1968. – Б. 71-72.